BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGIDA OCHIQ TA’LIM MUHITLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Tashpulatova Charos Anvarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo‘limi stajyor tadqiqotchisi

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va zarur shart-sharoitlari tahlil qilindi. Ochiq ta’lim platformalari, ommaviy ochiq onlayn kurslar, elektron resurslar va bulutli texnologiyalardan foydalanishning kasbiy hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni yoritildi. Tadqiqot natijasida motivatsion, mazmuniy, tashkiliy-metodik, texnologik, kommunikativ va refleksiv-baholash shart-sharoitlari tizimlashtirildi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish, raqamli vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim omili sifatida asoslandi.

Kalit so‘zlar: *ochiq ta’lim muhiti, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik shart-sharoitlar, raqamli kompetensiya, ochiq ta’lim platformalari, MOOC, mustaqil ta’lim, raqamli ta’lim, kasbiy kompetensiya.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR USING OPEN EDUCATIONAL ENVIRONMENTS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS

The article analyzes the pedagogical opportunities and necessary conditions for using open educational environments in improving the professional training of future teachers. The role of open educational platforms, mass open online courses, electronic resources, and the use of cloud technologies in developing professional and digital competencies was highlighted. As a result of the study, motivational, substantive, organizational-methodological, technological, communicative, and reflexive-evaluative conditions were systematized. Their interconnection was substantiated as an important factor in activating the independent educational activities of future teachers, developing skills in using digital tools for pedagogical purposes, and improving the quality of professional training.

Keywords: *open educational environment, future teacher, professional training, pedagogical conditions, digital competence, open educational platforms, MOOC, self-study, digital education, professional competence.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТКРЫТЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕД В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье анализируются педагогические возможности и необходимые условия использования открытых образовательных сред в совершенствовании профессиональной подготовки будущих учителей. Была освещена роль использования открытых образовательных платформ, массовых открытых онлайн-курсов, электронных ресурсов и облачных технологий в развитии профессиональных и цифровых компетенций. В результате исследования были систематизированы мотивационные, содержательные, организационно-методические, технологические, коммуникативные и рефлексивно-оценочные условия. Их взаимосвязь обоснована как важный фактор активизации самостоятельной образовательной деятельности будущих учителей, развития навыков использования цифровых средств в педагогических целях и повышения качества профессиональной подготовки.

Ключевые слова: *открытая образовательная среда, будущий учитель, профессиональная подготовка, педагогические условия, цифровая компетенция, открытые образовательные платформы, MOOC, самостоятельное обучение, цифровое обучение, профессиональная компетенция.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash mazmuni va metodlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda ta’limning ochiqligi, moslashuvchanligi va

raqamli resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ochiq ta’lim muhitlari ta’lim oluvchilarga turli elektron resurslar, onlayn kurslar, ta’lim platformalari va raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda oliy ta’limda raqamli ta’lim kompetensiyasiga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash masalasi xalqaro pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, oliy ta’limda raqamli o‘qitish kompetensiyasiga bag‘ishlangan tizimli tadqiqotlarda pedagogning raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmasi nafaqat texnik kompetensiya, balki ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish, kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish va ta’lim natijalarini baholash bilan bog‘liq kompleks kasbiy kompetensiya sifatida qaralishi ta’kidlangan [1]. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli va ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanish ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatiga zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ochiq ta’lim muhitlarining imkoniyatlari, avvalo, ta’lim resurslaridan erkin va moslashuvchan foydalanish, masofadan turib bilim olish, ta’lim jarayonining individuallashtirilishi hamda turli pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Oliy ta’limda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasiga qo‘yiladigan standartlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda raqamli muhitda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun texnologik bilimlar bilan bir qatorda metodik, kommunikativ va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi qayd etilgan [2].

Ochiq ta’lim muhitlari tarkibiga ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC), ochiq ta’lim platformalari, elektron ta’lim resurslari, bulutli texnologiyalar, virtual ta’lim muhitlari va boshqa raqamli vositalarni kiritish mumkin. Ayniqsa, MOOC platformalaridan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda zamonaviy pedagogik resurslardan foydalanish tajribasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Shu bilan birga, ochiq ta’lim platformalaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonining metodik imkoniyatlarini kengaytirib, ta’lim mazmunini turli raqamli resurslar bilan boyitish imkonini beradi [5].

O‘zbekistonda ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, axborot texnologiyalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish va raqamli ta’lim muhitini ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish uchun tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligi asoslangan [6]. Shuningdek, pedagogik ta’limda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil, ijodiy va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi [3].

Biroq ochiq ta’lim muhitlarining mavjudligi o‘z-o‘zidan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada shakllanishini ta’minlamaydi. Buning uchun ochiq ta’lim muhitlarini pedagogik jarayonga maqsadli integratsiyalash, ta’lim mazmuni va raqamli resurslarni o‘zaro muvofiqlashtirish, talabalarning mustaqil faoliyatini pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarning raqamli-metodik kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta’lim natijalarini muntazam monitoring qilish kabi shart-sharoitlarni ta’minlash talab etiladi. Shu sababli ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga samarali tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ochiq va raqamli ta’lim muhitlaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

J.M.Fernandes-Batanero, P.Roman-Gravan, M.Chernogoriya-Rueda, E.López-Meneses, J.Fernández-Cerero oliy ta’limda raqamli o‘qitish kompetensiyasining mazmunini tizimli tahlil qilib, pedagoglarning raqamli vositalardan metodik va pedagogik maqsadlarda foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini asoslaganlar [1].

A.Basantes-Andrade, S.Casillas-Martín, M.Cabezas-González, M.Naranjo-Toro tadqiqotlarida oliy ta’lim o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablarni tahlil qilib, raqamli ta’lim muhitida samarali pedagogik faoliyat uchun texnologik va metodik kompetensiyalarning uyg‘unligini ta’kidlaydilar [2].

T.T. Shakirov, N.A.Muminova zamonaviy pedagogikadagi istiqbolli yo‘nalishlarni tadqiq etib, innovatsion va raqamli yondashuvlarning ta’lim jarayoni samaradorligiga ta’sirini ko‘rsatganlar [3].

Е. Елубай, Ұ.М. Абдиғапбарова, Д.М. Джусубалиева ommaviy ochiq onlayn kurslarning bo‘lajak pedagoglar raqamli kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini asoslaganlar [4]. Ch.Tashpulatova esa

bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ochiq ta’lim platformalaridan foydalanishning metodik asoslarini yoritgan [5].

S.Sindarov bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlagan [6]. N.Donayev bulutli texnologiya muhitlaridan foydalanishning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi samaradorligini tadqiq etgan [7].

Tahlil qilingan tadqiqotlar ochiq va raqamli ta’lim muhitlarining kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini yaxlit tizim sifatida belgilash va ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga integratsiyalash masalasi yetarlicha tizimli yoritilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning ilmiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanish ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini zamonaviy pedagogik hamda raqamli imkoniyatlar asosida takomillashtirishni nazarda tutadi. Ochiq ta’lim muhiti talabaning ta’lim resurslariga erkin kirishi, mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishi, o‘qituvchi va boshqa ta’lim oluvchilar bilan raqamli kommunikatsiyaga kirishishi hamda o‘z ta’lim natijalarini baholashi uchun imkoniyat yaratadigan pedagogik-digital makon sifatida qaraladi.

Mazkur muhitdan samarali foydalanish uchun faqat texnik vositalarning mavjudligi yetarli emas. Ochiq ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlari ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va baholash vositalari bilan uzviy bog‘langan holda tashkil etilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ochiq ta’lim muhitidan foydalanish bir nechta o‘zaro bog‘liq pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi.

1-jadval.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari

№	Pedagogik shart-sharoit	Mazmuni	Kutiladigan natija
1	Motivatsion shart-sharoit	Ochiq ta’lim resurslaridan foydalanishga qiziqish va ichki ehtiyojni shakllantirish	Talabaning faol va mustaqil ishtiroki
2	Mazmuniy shart-sharoit	Kasbiy fanlar mazmunini ochiq elektron resurslar bilan boyitish	Kasbiy bilimlarning kengayishi
3	Tashkiliy-metodik shart-sharoit	Ochiq platformalar, MOOC, elektron kurslar va mustaqil topshiriqlarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash	Ta’lim jarayonining moslashuvchanligi
4	Texnologik shart-sharoit	Raqamli platforma va vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish imkoniyatini yaratish	Raqamli kompetensiyaning rivojlanishi
5	Kommunikativ shart-sharoit	O‘qituvchi-talaba va talaba-talaba o‘rtasidagi raqamli hamkorlikni tashkil etish	Hamkorlik va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi
6	Refleksiv-baholash shart-sharoiti	O‘zlashtirish natijalarini monitoring qilish, o‘z-o‘zini baholash va refleksiyani tashkil etish	Kasbiy rivojlanish va o‘zini o‘zi boshqarish

1-jadvaldan ko‘rinadiki, ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari alohida elementlar emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tizimni tashkil etadi. Motivatsion shart-sharoit talabaning ta’lim faoliyatiga jalb etilishini ta’minlasa, mazmuniy va tashkiliy-metodik shart-sharoitlar ochiq resurslardan maqsadli foydalanish imkonini beradi. Texnologik shart-sharoit raqamli vositalardan foydalanish uchun zarur muhitni yaratadi. Kommunikativ hamda refleksiv-baholash komponentlari esa talabaning hamkorlikdagi faoliyati, o‘z ta’lim natijalarini tahlil qilishi va kasbiy rivojlanishini boshqarishiga xizmat qiladi.

Ochiq ta’lim muhitidan foydalanishda motivatsion shart-sharoit boshlang‘ich omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Talaba ochiq resurslardan foydalanishning kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini anglamasa, mavjud raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasi pasayadi. Shu sababli kasbiy fanlarni o‘qitishda real pedagogik vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, loyiha faoliyati va mustaqil ta’lim elementlaridan foydalanish orqali talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Mazmuniy shart-sharoit ochiq ta’lim resurslarini bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi mazmuni bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Bunda ochiq elektron darsliklar, videoma’ruzalar, ilmiy

maqolalar, MOOC kurslari, interaktiv topshiriqlar va boshqa resurslar shunchaki qo‘shimcha material sifatida emas, balki o‘quv maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida tanlanishi kerak.

Tashkiliy-metodik shart-sharoit ochiq ta’lim muhitidan foydalanishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. O‘qituvchi ochiq platformalardan foydalanish jarayonini oldindan loyihalashtirishi, talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etishi va uning natijalarini nazorat qilishi zarur. Bunda an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari ochiq elektron resurslar, mustaqil topshiriqlar va masofaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin.

Texnologik shart-sharoit ochiq ta’lim muhitining texnik jihatdan mavjudligi va undan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi. Biroq texnologik ta’minotning o‘zi yetarli emas. Bo‘lajak o‘qituvchi raqamli vositani tanlash, undan pedagogik maqsadda foydalanish, elektron resurs yaratish va ta’lim natijalarini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Bu holat raqamli kompetensiyani kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarashni talab etadi [1; 2].

Kommunikativ shart-sharoit ochiq ta’lim muhitining interaktiv imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Forumlar, videokonferensiyalar, guruhli loyihalar, elektron muhokamalar va boshqa hamkorlik shakllari orqali talabalarning kasbiy fikr almashishi ta’minlanadi. Natijada ular nafaqat bilimlarni o‘zlashtiradi, balki kelgusidagi pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Refleksiv-baholash shart-sharoiti talabaning o‘z faoliyati va erishgan natijalarini tahlil qilishiga imkon beradi. Elektron portfolio, onlayn testlar, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash va refleksiv topshiriqlardan foydalanish talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv ochiq ta’lim muhitini oddiy axborot manbai emas, balki uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlovchi pedagogik tizimga aylantiradi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanish motivatsiya → mazmun → metodika → texnologiya → kommunikatsiya → refleksiya va baholash izchilligida tashkil etilgandagina kutilgan pedagogik samarani beradi. Ushbu shart-sharoitlarning o‘zaro uyg‘unligi talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirish, raqamli va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorgarligini oshirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanish samaradorligi uning alohida raqamli vositalardan foydalanish bilan emas, balki mazkur muhitni pedagogik jarayonning maqsadi, mazmuni va natijalari bilan uyg‘unlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiya, ochiq ta’lim platformalari, MOOC va bulutli texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning mustaqil ta’lim olish, axborotni izlash, qayta ishlash va kasbiy faoliyatda raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi [1–7].

Tahlil natijasida ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida motivatsion, mazmuniy, tashkiliy-metodik, texnologik, kommunikativ va refleksiv-baholash shart-sharoitlari ajratildi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi pedagogik ketma-ketlikni hosil qiladi: talabaning ochiq ta’lim muhitidan foydalanishga motivatsiyasi → mos raqamli ta’lim mazmunini tanlash → mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish → raqamli vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish → natijalarni baholash va refleksiya.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ochiq ta’lim muhitidan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida uchta asosiy yo‘nalishda ijobiy imkoniyat yaratadi. Birinchidan, talabaning mustaqil ta’lim olish faolligi oshadi. Ochiq elektron resurslarning mavjudligi talabaning o‘quv materiallarini mustaqil tanlashi va o‘zlashtirish sur’atini belgilashiga imkon beradi. Ikkinchidan, raqamli va kasbiy kompetensiyalar rivojlanadi. Talaba raqamli platformalar, elektron resurslar va onlayn hamkorlik vositalaridan foydalanish orqali kelgusidagi pedagogik faoliyat uchun zarur amaliy tajribaga ega bo‘ladi. Uchinchidan, kasbiy refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanish jarayonida o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. U faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim resurslarini tanlovchi, o‘quv faoliyatini loyihalovchi, konsultant va talabaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagoglarning o‘zlarida ham raqamli-metodik kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Xorijiy tadqiqotlarda ham raqamli kompetensiyaning pedagogik faoliyat bilan integratsiyalashuvi ta’lim samaradorligining muhim sharti sifatida ko‘rsatilgan [1; 2].

Tahlil asosida ochiq ta’lim muhitidan foydalanishning quyidagi natijaviy modeli shakllantirildi: Ochiq ta’lim muhiti → mustaqil ta’lim faoliyati → raqamli kompetensiya → kasbiy kompetensiya → kasbiy tayyorgarlikning takomillashuvi.

Mazkur modelda ochiq ta’lim muhiti boshlang‘ich imkoniyat, mustaqil ta’lim faoliyati jarayon, raqamli va kasbiy kompetensiyalar rivojlanish natijasi, kasbiy tayyorgarlikning takomillashuvi esa yakuniy pedagogik natija sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tahlil natijalari ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishda ayrim muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Jumladan, raqamli resurslarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash, ularning sifatini baholash, talabalarning mustaqil faoliyatini nazorat qilish va raqamli ta’limdagi individual farqlarni hisobga olish zarur. Demak, ochiq ta’lim muhitining samaradorligi uning texnik imkoniyatlaridan ko‘ra, pedagogik jihatdan to‘g‘ri loyihalashtirilishi va boshqarilishiga ko‘proq bog‘liq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun samarali pedagogik imkoniyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarning tizimli ravishda amalga oshirilishi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish, raqamli vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijasida ochiq ta’lim muhitlaridan samarali foydalanishning motivatsion, mazmuniy, tashkiliy-metodik, texnologik, kommunikativ va refleksiv-baholash shart-sharoitlari aniqlandi.

Ochiq ta’lim muhitlarini mazkur shart-sharoitlar asosida tashkil etish talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish, raqamli resurslardan pedagogik maqsadda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Bunda ochiq ta’lim platformalari, MOOC, elektron resurslar va bulutli texnologiyalarni ta’lim mazmuni bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, ochiq ta’lim muhiti faqat texnologik vositalar majmui sifatida emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil, hamkorlikdagi va refleksiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi yaxlit pedagogik muhit sifatida tashkil etilishi lozim. Shu asosda ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy ta’lim jarayoniga tayyorlash hamda kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Fernandes-Batanero J.M., Roman-Gravan P., Montenegro-Rueda M., López-Meneses E., Fernández-Cerero J. Digital Teaching Competence in Higher Education: A Systematic Review // Education Sciences. – 2021. – Vol. 11, No. 11. – Art. 689. – DOI: 10.3390/educsci11110689.

2. Basantes-Andrade A., Casillas-Martín S., Cabezas-González M., Naranjo-Toro M. Standards for Teachers’ Digital Competence in Higher Education: A Systematic Literature Review // Sustainability. – 2022. – Vol. 14, No. 21. – Art. 13983.

3. Shakirov T.T., Muminova N.A. Research of promising trends in pedagogy which influence the success of the educational process // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – Vol. 1, Issue 10. – P. 1104–1109.

4. Елубай Е., Абдиғапбарова Ұ.М., Джусубалиева Д.М. Жаппай ашық онлайн-курстары (MOOCs) – болашақ педагогтардың цифрлық құзыреттілігін дамыту құралы // Педагогикалық ғылымдар сериясы. – 2020. – № 3 (64). – С. 50–58. – DOI: 10.26577/JES.2020.v64.i3.05.

5. Tashpulatova Ch. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ochiq ta’lim platformalaridan foydalanishning metodik asoslari // O‘zMU xabarlari. Ijtimoiy fanlar. – 2025. – № 1/8/1. – B. 124–126.

6. Sindarov S. Bo‘lajak o‘qituvchilarni axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari // O‘zMU xabarlari. Falsafa. – 2024. – № 1/7/1. – B. 173–175.

7. Donayev N. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda bulutli texnologiya muhitlaridan foydalanish samaradorligi // O‘zMU xabarlari. Ijtimoiy fanlar. – 2026. – № 8. – B. 103–105.

8. Bekberdiyeva G.O. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta’lim muhitining o‘rni // “Ilm-fan, texnologiya va ta’limda yangi paradigmalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – NamDPI, 2025. – B. 810–812.

9. Ochilova G.H. qizi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining savod o‘rgatishga kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – № 43. – B. 140–144.

10. Normurodova N. Uzluksiz ta’lim tizimida ingliz tili o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyasini shakllantirish masalalari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – № 7.1. – B. 109–111.